

Toshkent Davlar Iqtisodiyot Universiteti

“Moliya ” fakulteti

MMT-97 guruh talabasi Anvarov Saidamirxon

Anotatsiya: *ushbu maqolada, qimmatli qog'ozlar turlari, derevativ tushinchasi, hosilaviy qimmatli qog'oz turlari, opsiyon, fyuchers haqida malumotlar keltirilgan.*

Kalit so'z : *qimmatli qog'oz, derevativ, ba'zis qimmatli qog'ozlar, opsiyon, fyuchers, varrant, aktsiya , obligatsiya*

Derevativ- Hosilaviy qimmatli qog'ozlar ham deyiladi.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar – bu birlamchi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, va h.k.)laring shu bozorda amal qilishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar- bu hujjat shaklida yoki ixtisoslashtirilgan depozitariylardagi hisob raqamdagi yozuvlar ko'rinishida alohida usul bilan tasdiqlanadigan, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qarz yoki aksiyadorlik kapitali shaklidagi mablag'larni jalb etish, qayta taqsimlash va qaytarib to'lash sohasidagi mulkiy hamda u bilan bog'liq nomulkiy huquqlardir.

Derevativlar, moliya bozorlarida foydali bo'lgan instrumentlardir, chunki ular tijoratda o'z ichki risklarni muhofaza qilishga imkon beradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida derevativlarning ba'zasini aktsiya obligatsiya, valyuta, indeks , prosentlar va tovar bilan bo'ladigan obligatsiyalar tashkil etadi. Bu instrumentlar moliya bozorida katta risklarni sug'urtalashga xizmat qiladi, chunki bu bozorda xavf riskdan kelib chiqib milliardlab dollar bo'lishi mumkin. O'zining moliyaviy riskini cheklash uchun xaridorlar opsiyondan foydalanishadi.

Options eng yomon holatlarda yo'qitish mumkin bo'lgan zararni kamaytirishga, riskni yumshatisiga yordam beradi. Hozirgi kunda Fond bozorlari, moliya bozorlari rivojlangan g'arb mamlakatlarida options shartnomalar, indekslar, fozi qimmatli qog'ozlar, valyuta, fyuchers shartnomalari keng qo'llaniladi. Derevativ birjada yoki birja tashqarisida savdo qilinishi mumkin. Derevativ nmarxlari asosiy aktivning o'zgarishidan kelib chiqadi.

Tabiiyki yurtimizda ham hosilaviy qimmatli qog'ozlar mavjud va bu bilan ishlovchi insonlar topiladi. O'zbekistonda hosilaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarish va ularning muomalasiga xos xususiyatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qununining 3-moddasida Hosilaviy qimmatli qog'ozlarga quyudagicha ta'rif berilgan : " Qimmatli qog'ozlarning hosillari- o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi yuridik shaxslar tomonidan emitentning optionslari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir" . Yurtimizdagi nizomga muvofiq faqatgina aksiyadorlik jamiyatlari derevativlarni chiqarishi mumkin. Shu tartibdagi qimmatli qog'ozlarni emissiyasi davlar ro'yxatidan o'tgan bo'lishi hamda belgilangantartibda ro'yxatga olish raqami bo'lishi lozim. Derevativlaning emitenti bu – hosilaviy qimmatli qog'oz chiqaruvchi va ushbu qimatli qog'oz egalari oldida ular nomidan o'z majburiyatiga egan bo'lgan yuridik shaxs. Derevativlarni chiqarish to'g'risidagi qraornichiqarish vakolatiga ega bo'lgan emitentning boshqaruv idorasi tomonidan qabul qilinadi. Ular nqd hamda naqdsiz shaklda chiqarilishi mumkin.

Dunyoda hosilaviy qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

--option

--fyuchers

--konosament

--depozit tilhat

--varrant

--forvard va boshqalar.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning boshqa qimmatli qog'ozlar singari bir qamcha turlarga bo'linadi:

- 1) Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar
- 2) Muddatli qimmatli qog'ozlar
- 3) Shartnomalar kombinatsiyasi
- 4) Hosilaviy qimmatli qog'ozlar va gibrid instrumentlar

Muddatli qimmatli qog'ozlarga – opsiyon, fyuchers va forvard misol bo'ladi. Aynan ushbu turlari boshqa derevativlarga nisbatan rivojlangan. Muddatli aktiv deganda ma'lum bir aktivni kelajakda yetkazib berish sharti bilan tuzilgan shartnomalar tushuniladi. Muddatli shartnomalar ba'zisdagi aktiv(obligatsiya, aksiya indekslar, valyuta) qancha oshsa, shuncha opsiyon hamda fyuchers bozori ham oshadi. Hozirda muddatli qimmatli qog'ozlar ba'zisli qimmatli qog'ozlarga nisbatan bozorda tezroq savdo qilinadi va bu bozor hajmi katta, sababi esa muddatli qimmatli qog'ozlar muddat tugashi bilan hisob-kitob qilinadi. Misol uchun ba'zisdagi aktiv hisoblangan aksiya yoki obligatsiyani investor opsiyon orqali vaqtinchalik egasiga aylansa muddat kelganda hamda investor shartnomadan foyda olayotgan bo'lsa shundagina hisob kitob qilinadi agarda shartnomaga ko'ra zarar bo'lsa bu savdo amlaga oshish ehtimoli juda oz sababi opsiyon egasiga oldi-sotdi bo'yicha huquq beradi majburiyat yuklamaydi.

Muddatli shartnoma bo'yicha aktiv sotib olish yoki sotish vaqtida shartnoma shartlari kelishilib olinadi. Xorijiy adabiyotlarda hosilaviy qimmatli qog'ozlarni ba'zisli instrument ham deyishadi.

Derevativlar bilan savdo-sotiq qiluvchilar chayqovchilar, xedjer, arbitrajchi va marja treyderlari deyiladi.

Chayqovchilar- muddatli shartnomalar bahosining farqidan foyda olish uchun risk qiluvchi bozor ishtirokchilari.

Xedjer- uning maqsadi egalik qilayotgan aktivining bozordagi baholari o'zgarishi natijasida mavjud risklarni minimallashtirish.

Arbitrajchi- bu bir martalik oldi-sotdi jarayonlarida risksiz daromad olishga xarakat qiluvchi ishtirokchi.

Optionslar - bu xaridorga ma'lum bir vaqt oralig'ida ma'lum bir narxda asosiy aktivni sotib olish yoki sotish majburiyatini emas, balki huquqini beruvchi moliyaviy derivativ shartnomalardir. Amerika optionslari options muddati tugagunga qadar istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tomondan, Evropa variantlari faqat uning amal qilish muddati tugashi bilan amalga oshirilishi mumkin. Options bozori professional treyderlar va tajribaga ega bo'lmagan individual ishtirokchilar uchun ham noaniq segment hisoblanadi. Lekin ko'pchilik shu oraqali mo'maygina daromad olishadi. Optionsning bahosi uning asosini tashkil etuvchi moliyaviy instrumentlarga uzviy bog'liq. Options savdosi tarixiga to'xtalsak birinchi marta Chicago optionslar bozorida 1973 yilda birinchi marta o'tkazilgan. Eng oddiy options sotuvchi(seller, writer) va sotib oluvchi(buyer, holder) orasida tuziladigan shartnoma.

Optionsni tavsiflashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- 1) Options turi ("call" yoki "put")
- 2) Options asosida yotuvchi aktivlar
- 3) Bajarilish bahosi
- 4) Optionsning tugashi muddati
- 5) Options mukofoti.

Optionsning 2 ta asosiy ko'rinishlari mavud "koll" hamda "put". Options koll da Options egasi 100 ta aksiyani qat'iy belgilangan bahoda sotib olish huquqini beradi. Agar xaridor ushbu huquqdan foydalansa sotuvchi ushbu aksiyalarni yetkazib berishga majbur.

Option put da ba'zisdagi 100 ta aksiyani qat'iy belgilangan narxda sotuvchiga sotish huquqini beradi. Agar sotuvchi ushbu huquqdan foydalansa xaridor ushbu 100 ta ba'zisdagi aksiyani belgilangan narxda sotib olishga majbur.

Optionning bajarilish narxi (stiking price, exercise price) bu moliyaviy instrumentlar sotib olinishi yoki sotilishi mumkin bo'lgan narx. Optionlar bajarilishi investorlar uchun aksiyalarni pastroq narxlarda sotib olish imkonini beradi. Emitentga put Option asl narxidan yuqoriroqqa sotish imkonini beradi. Bu borada koll Option investorlarga bozordav "buka" va "ayiq" trendlari uchun strategiya ishlab chiqishga yordam beradi.

Fyucherslar- standartlashtirilgan shartnomalar bo'lib, shartnoma egasiga tegishli asosiy aktivni ma'lum bir sanada kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish imkonini beradi. Fyuchers shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlar shartnomani kelishilgan holda bajarish uchun nafaqat huquq, balki majburiyat ham oladilar.

Fyuchers shartnomalari birja bozorida sotiladi va shuning uchun ular yuqori likvidli, vositachi va birja tomonidan tartibga solinadi.

Fyuchersning option bilan o'xshash jihatlari ikkovi ham kelajakda sotib olish imkonini beradi. Farqi fyuchers belgilangan vaqt tugashi bilan hisob-kitob talab qiladi, fyuchers bo'yicha risk opsiyaga qaraganda ancha yuqori sanaladi. Fyuchers bo'yicha zarar milliardlab dollar bo'lishi mumkin. Fyuchers bilan savdo qiluvchi sotuvchi va xaridorning hisob raqamlari ochilgan birjalarning kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Kliring palatasi fyuchers savdolariga vositachi hamda sug'urta vazifasini bajaradi. Kliring palatasi shartnoma bajarilishiga kafil bo'ladi. Fyuchers bozorida oldi-sotdi ishlarini barajarish uchun har bir broker kliring kompaniyasiga badal summasini to'lashi lozim. Agar fyuchers shartnoma shartlari bajarilmasa belgilangan tovon pulini to'lishi kerak bo'ladi. Shartnomaning xaridori ham, sotuvchisi ham birja bilan savdo shartlariga rozi bo'lsa-da, haqiqiy kliring va hisob-kitoblar kliring markazi tomonidan amalga oshiriladi. Hisob-kitob palatalari savdolarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan

texnik kliring va hisob-kitob vazifalarini bajaradi. Barcha derevativ birjalarning o'z hisob-kitob markazlari mavjud va bu birjada bitimni amalga oshirgan birjaning barcha a'zolari savdo sessiyasi oxirida hisob-kitob qilish uchun kliring markazidan foydalanishlari shart. Moliyaviy bozor barqarorligini saqlashga yordam berish uchun kliring palatalari ham qattiq tartibga solinadi.

O'zbekiston qonun xujjatlarida: fyuchers-bu ma'lum bir qimmatli qog'oz va boshqa moliyaviy vositalarni shartnomada belgilangan narxda ma'lum kelajak sanada sotib olish yoki sotish uchun so'zsiz majburiyatni tasdiqlovchi shartnoma. Ba'zis aktivi birinchi marta muomlaga chiqarilayotganda qimmatli qog'oz bo'lgan fyucherslarni chiqarishga yo'l qo'ymaydi.

Derevativlarning yana bir turi bo'lgan depozitar tilxat- bu fond bozorida erkin muomalada bo'ldigan xorijiy kompaniya aksiyalarining hosilaviy qimmatli qog'ozidir va u nominal qiymatga ega emas u taqdim etadigan qimmatli qog'ozning muayyan soni mulk huquqini ifodalaydi.

Depozitar tilxatlarning mohiyati:

- 1) Depozitar tilxatlar mulkchilik munosabatini namoyon etadi;
- 2) Depozitar tilxat hosilaviy xarakterga ega;
- 3) Depozitar tilxatlarni chiqarish va uning muomala jarayoni bo'ladiga iqtisodiy munosabatlar ikki va unadan ortiq huquqiy tizimlar kesimida amalga oshiriladi;
- 4) Depozitar tilxatlarasosida turuvchi kapital xalqaro tabiatga ega;

Varrantlar- bu egasiga muayyan vaqt uchun yoki muddatsiz shart bilan shartnomada ko'rsatilgan narxda qimmatli qog'ozlarni sotib olish huquqini beruvchi guvohnoma. U amalda iqtisodiyotga safarbar qilish uchun emas, balki, qayta taqsimlashda keng qo'llaniladi. Varrantni chiqarilishi ba'zis aktivni tashkil qiluvchi qimmatli qog'ozlarni chiqarilishi bilan bog'liq. Ba'zis aktivning bahosi qimmatli qog'ozlar nominalidan past bo'lgan varrantlarni emissiyasi taqiqlanadi.

Faqatgina bu holat obligatsiya uchun mumkin. Varrant emittentlari varrantning dastlabki emitenetlariga ularni xarid qilish uchun teng narxlarni ta'minlashi kerak.

Forvard shartnomalari yoki forvardlar fyuchersga o'xshaydi, lekin ular birjada savdo qilmaydi. Ushbu shartnomalarda faqat birjadan tashqari savdoni amalga oshiriladi. Forvard shartnomasi tuzilganda, xaridor va sotuvchi shartlarni, hajmni va hisob-kitob jarayonini o'zgartirishi mumkin. Birjadan tashqari savdoda forvard shartnomalari ikkala tomon uchun ham ko'proq kontragent xavfini paydo qiladi.

Kontragent risklari kredit riskining bir turi bo'lib , tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajara olmasligi mumkin. Agar bir tomon to'lovga layoqatsiz bo'lib qolsa, ikkinchi tomon hech qayerga murojaat qilmasligi va ma'lum summalarni yo'qotishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda :Derevativlar dunyo fond bozorlarida keng tarqalgan ikkilamchi qimmatli qog'ozlar instrumenti bo'lib ular bilan ishlash investorlar uchun "Moliyaviy richak " samarasi, hisob kitoblarni kelgusida amalga oshishi hamda risklarni xedjirlash kabi ahmiyatga ega. Derevativlarning afzalliklari narxlarni noqulay harakatidan himoyalaydi, xatarni kamaytiradi,investor va biznesmenlar uchun qulay vosita hisoblanadi. Kamchiliklari uni baholash qiyin, chunki ular boshqa aktivlar narxiga asoslanadi, tushunish murakkab, talab taklif tez o'zgaradi birjadan tashqari savdolarda kontragen risk paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moliya bozori instrumentlari va investitsiyalar. A.U. Burxanov, X.X.Xudoyqulov.
2. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Shoha'zamiy Shohmansur Shohnazir og'li
3. Moliya Bozori. B.E. Toshmurodova; A.U.Burxonov; N. Shavkatov

